

IBN MISKAVAYHNING AXLOQIY QARASHLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-400-403>

Abdug‘aniyeva Sevinch

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi

4-kurs arab-ingliz guruhi talabasi

Ilmiy rahbar: PhD, Sulaymonova Shaxnoza

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta asr Sharq falsafasining yirik namoyandalardan biri bo‘lgan ibn Miskavayhning axloqiy qarashlari tahlil qilingan. Mutafakkirning inson kamoloti, fazilatlar tizimi, nafs tarbiyasi va jamiyatdagi axloqiy muvozanat haqidagi fikrlari o‘rganilib, ularning bugungi kundagi ahamiyati yoritigan. Shuningdek, uning asosiy asari “Tahzib al-axloq” asosida axloqiy mukammallikka erishish yo‘llari izohlangan.

Kalit so‘zlar: Ibn Miskavayh, axloq, fazilat, nafs tarbiyasi, komil inson, falsafa, o‘rta asr Sharq tafakkuri.

KIRISH

Sharq falsafasi tarixidainsonning ichki dunyosi, xulqi, fazilatlar va jamiyatdagi mas’uliyati masalasi doimo markaziy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Ayniqsa, IX-XI asrlarda musulmon Sharqida axloqiy tafakkur nafaqat diniy-didaktik qarashlar doirasida, balki mustaqil falsafiy tahlil maydonida ham rivojlandi. Ana shu jarayonda Abu Ali Ahmad ibn Muhammad ibn Ya‘qub ibn Miskavayh o‘zining axloqiy qarashlari bilan alohida o‘rin tutadi. U axloqni faqat odob-axloq qoidalari yig‘indisi sifatida emas, balki inson tabiatini takomillashtirish, ruhiy quvvatlarni muvozanatga keltirish va baxt-saodatga erishishning nazariy-amaliy tizimi sifatida talqin qilgan. Ibn Miskavayh axloqiy qarashlarini to‘g‘ri tushunish uchun, avvalo, u shakllangan falsafiy va manbaviy muhitni aniqlab olish zarur. Chunki har qanday yirik mutafakkirning ta‘limoti birdan paydo bo‘lmaydi, balki ma‘lum bir ilmiy an‘ana, tarixiy tajriba, madaniy muhit va g‘oyaviy ta’sirlar negizida vujudga keladi. Ibn Miskavayh ham bundan mustasno emas. Uning axloqiy ta‘limoti bir tomondan qadimgi yunon falsafasining, ayniqsa Aristotel etikasi va neoplatonik qarashlarning ayrim jihatlarini o‘zlashtirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan islomiy ma‘naviy qadriyatlar, Qur‘oniy axloq, hadislar mazmuni, musulmon jamiyatining ijtimoiy talablari va Sharqona tarbiya an‘analari bilan boyigan. Shu sababli uning merosi bir yoqlama diniy-didaktik matn emas, balki falsafiy asoslangan axloqiy konsepsiya sifatida baholanadi. “Tahzib al-axloq” asarida inson tabiatining tarkibi, ruhiy quvvatlar, ularning muvozanati, xulqiy odatlarning shakllanishi, fazilat va razolatning manbalari, baxt-saodatga eltuvchi yo‘llar izchil sharhlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik tamoyillardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ibn Miskavayhning axloqiy qarashlari faqat umumiy tarixiy ma’lumotlar doirasida emas, balki asosiy tushunchalar tizimi - fazilat, saodat, ruhiy muvozanat, xulq tarbiyasi va komil inson g’oyalari doirasida tahlil qilinishida namoyon bo’ladi. Miskavayhning axloqiy ta’limotida aql markaziy o’rin egallaydi. Unga ko’ra, inson boshqa mavjudotlardan, eng avvalo, aqli, idroki va ongli tanlov qobiliyati bilan farq qiladi. Insonning haqiqiy ustunligi jismoniy kuchda emas, balki o’z nafsini boshqaraolishida, me’yorni topa bilishida va fazilatni ongli ravishda tanlashida namoyon bo’ladi. Bu yondashuv uning shaxs haqidagi qarashlarini chuqurlashtiradi. Chunki u xulqni o’zgarmas taqdir yoki faqat nasliy xususiyat bilan bog’lamaydi. Aksincha, insonda mavjud tabiiy moyilliklar tarbiya, odat va aql vositasida o’zgarishi, sayqallanishi mumkin, deb hisoblaydi.

Hikmat, shijoat, iffat va adolatni asosiy fazilatlar sifatida ko’rib, ularning buzilgan shakllarini razolat sifatida izohlaydi. Bu yerda Aristotel etikasi bilan uyg’unlik seziladi, lekin Miskavayh masalani shunchaki yunoncha qolipda qoldirmaydi. U fazilatni insonning ma’naviy poklanishi, ruhiy barqarorligi va ijtimoiy kamoloti bilan bog’laydi. Bu jihati bilan uning ta’limoti islomiy axloqiy muhitga chuqur singgan. Mohd Nasir Omarning ta’kidlashicha, Miskavayhning axloqiy tafakkuri yunon, islomiy va qisman nasroniy manbalar ta’sirida shakllangan bo’lsa-da, ularni bir butun tizimga solganligi bilan alohida ahamiyatga ega¹.

Ibn Miskavayh o’zining “Tahzib al-axloq” asarida insonning fe’l-atvori tabiatan o’zgarmas emasligini, uni tarbiya, odat va aql vositasida shakllantirish mumkinligini asoslab beradi. Aynan shu yondashuv uning ta’limotiga amaliy ahamiyat baxsh etadi. Chunki mutafakkir nazarida insonda mavjud salbiy moyilliklar qat’iy hukm sifatida emas, balki tarbiya orqali tuzatilishi mumkin bo’lgan holat sifatida qaraladi. Bu esa uning inson haqidagi qarashlarida optimistik ruh kuchli ekanini ko’rsatadi. U insonni komillikka intila oladigan, o’z ustida ishlashga qodir va ma’naviy yuksalish imkoniyatiga ega mavjudot deb biladi. Shu sababli “Tahzib al-axloq” nafaqat o’z davri uchun, balki bugungi ma’naviy tarbiya va axloqiy kamolot masalalari uchun ham nazariy manba bo’lib xizmat qiladi. U shunday yozadi: “Insonning haqiqiy baxti uning axloqiy kamolotidadir”. Bu fikr orqali u moddiy boylik emas, balki ma’naviy yetuklikni ustuvor deb biladi. Mutafakkir insonni kamolga yetkazishda nafsni tarbiyalash muhimligini ta’kidlaydi. Unga ko’ra, inson o’z nafsini nazorat qilish orqali ruhiy poklikka erishadi. Ibn Miskavayh uch asosiy kuchni ajratadi:

- Aqliy kuch
- G’azabiy kuch
- Shahvoniy kuch

Bu kuchlar muvozanatda bo’lsa, inson komillikka erishadi. “Nafsni tarbiyalash insonning o’z ustidan g’alabasidir”².

¹ Mohd. Nasir Omar. Miskawayh’s Ethical Thought and Its Sources. Kuala Lumpur: 2003.

² .52-51 ص - انتشارات سروش 1991 (Roziy Abu Ali Mashkuya Tajoribul umam. / Tahr. Abu Qosim Imomiy. – Tehron: Surush nashrlari. 1991. – B. 51-52.)

Yana bir muhim jihat shundaki, Ibn Miskavayhning falsafiy-manbaviy asoslari Sharq tafakkurida komil inson g‘oyasining keyingi rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Uning qarashlarida insonning ichki dunyosini tartibga solish, xulqni odat orqali shakllantirish, aqlni axloqiy mezon darajasiga ko‘tarish va saodatni ma’naviy yuksalish bilan bog‘lash keyingi mutafakkirlar uchun ham muhim nazariy zamin yaratgan. Bu esa uning merosi faqat bir davr mahsuli emas, balki davomli falsafiy an’ana hosil qilganini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, Ibn Miskavayh qarashlarining falsafiy-manbaviy asoslarini o‘rganish nafaqat uning o‘z ta’limotini chuqurroq tushunishga, balki Sharq axloqiy tafakkurining keyingi taraqqiyot bosqichlarini anglashgaham yordam beradi.

XULOSA

Maqolamning so‘ngida oxirgi xulosamni qisqacha berib o‘tsam, Ibn Miskavayh merosi Sharq falsafiy tafakkurining qimmatli qatlami bo‘lib, unda insonning ichki kamoloti, xulqiy me‘yori va ijtimoiy mas‘uliyati bir butun holda talqin etilgan. Uning axloqiy ta’limoti bugun ham nazariy jihatdan chuqur, tarbiyaviy jihatdan foydali va ma’naviy hayot nuqtai nazaridan ahamiyatli meros sifatida qadrlanishga loyiqdir.

REFERENCES

1. راضي أبو علي مشكويه تجارب الأمم ابو القاسم إمامي - طهران: انتشارات سروش 1991 - 204-ص (Roziy Abu Ali Mashkuya Tajoribul umam. / Tahr. Abu Qosim Imomiy. – Tehron: Surush nashrlari. 1991. – 204 b.).
2. Mohd. Nasir Omar. Miskawayh’s Ethical Thought and Its Sources. Kuala Lumpur: 2003.
3. Sulaymonova, Shahnoza Nodirovna (2026). “TAHZIBUL AXLOQ” ASARIDA AXLOQIYLIK MEZONLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 6 (2), 81-86.
4. Sulaymonova, S. N. (2026). IBN MISKAVAYHNING MASHSHOIYYUNLIK YO ‘NALISHIDAGI O’RNI. International scientific journal of Biruni, 5(1), 56-63.
5. Sulaymonova, S. N. (2024). IBN MISKAVAYHNING SHARQ FALSAFIY TAFAKKURIDAGI O ‘RNI. XXI Asr: Fan va ta’lim masalalari (XXI век: Вопросы науки и образования), 1(1), 68-75.
6. Sulaymonova, S. N. (2024). “TAHZIBUL AXLOQ” ASARIDAGI AXLOQIYLIK MEZONLARINING HOZIRGI DAVRDAGI KOMIL INSON G ‘OYALARI BILAN HAMOHANGLIGI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(21), 668-672.
7. Nodirovna, S. S. (2024). The Views of Muslim Philosophers on the Theory of Evolution. American Journal of Research in Humanities and Social Sciences, 30, 24-29.
8. Sulaymonova, S. N. (2023). IBN MISKAVAYHNING IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDA JAMOAVIY HAMJIHATLIK VA O‘ZARO MUHABBAT MASALASI. International scientific journal of Biruni, 2(2), 203-208.



9. Сулаймонова, Ш. Н. (2023). КОНФУЦИЙ ВА ИБН МИСКАВАЙХ АХЛОҚИЙ ҚАРАШЛАРИДАГИ УЙЎУНЛИК. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(21), 732-738.

10. Sulaymonova, S. N. (2022). IBN MISKAVAYHNING INSON KAMOLOTI MASALASIGA MUNOSABATI TAHLILI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 23), 917-923.